

XIVA XONLIGI TASHKIL TOPISHINING TARIXIY AHAMIYATI**Haqqulov Mehriddin Yunusovich**

Osiyo xalqaro universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi.

mexriddinhaqqulov@gmail.com**Qosimov Umidjon Ismatillo o‘g‘li**

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix ta’lim yo‘nalishi 1-T-24 guruh talabasi.

K4558024@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15692621>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligining tashkil topishi, davlatchilik boshqaruvining Temuriylardan Shayboniylar qo‘liga o‘tishi bilan bog`liq ma`lumotlar keltirilgan. Temuriylar tasarrufida bo‘lgan Xorazm hududini Shayboniyxon 1505 yilda bosib olgan. Shayboniyxon vafoti (1510 yil) dan keyin Xorazm Safaviylari qo‘l ostiga o‘tdi. Ularga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib, unga Vazir qal’asi qozisi Umar va Baqirg‘on qishlog‘idan mulla Sayd Hisomiddin boshchilik qildi. Ikki yil davom etgan kurashlar natijasida Safaviylar mamlakatdan quvib chiqarilgan va xorazmliklar taklifi bilan 1511 yilda Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbarsxon Xorazm hukmdori deb tan olingen. 1512 yilga kelib xonlik hokimiyati ko‘chmanchi o‘zbeklarning boshqa urug‘i (shajarasi) rahbari Elbarsxon qo‘liga o‘tadi. Shu vaqtidan boshlab Xiva xonligi yuzaga keladi, uning poytaxti turli yillarda Vazir, Ko‘hna Urganch va Xiva shaharlari bo‘lgan. Xonlik tarkibiga Xorazmdan tashqari Mang‘ishloq, Balxan tog‘lari, Dehiston, O‘zboy (Uzboy) va O‘rta Xuroson hududlari kirgan

Kalit so‘zlar: Temuriylar, Shayboniyxon, Xorazm, Safaviylar, Vazir qal’asi, Ko‘hna Urganch, Xiva, Xuroson, Dashti Qipchoq, Elbarsxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Abulg‘oziy Bahodirxon, Abdulazizzon, Subhonqulixon, Rossiya, Aleksandr Bekovich-Cherkasskii, Sherg‘ozixon, Orol bo‘yi, O‘rta Osiyo, Samarcand, Anushaxon, Nodirshoh, Buxoro, Kaspiy dengizi.

Kirish. Elbarsxon (1511—16) bilan birga Dashti Qipchoqdan Xorazmga kelgan qabilalar o‘troqlashganlar. Uning davrida Xorazmliklar Turkmanistonning janubiy qismi, Eron shimolidagi Saraxs, Orol va Mang‘ishloqni egallashgan. Yangi yerlarni Elbarsxon o‘g‘illari va ukasi, qarindoshlariga bo‘lib berishi natijasida mayda hokimliklar paydo bo‘lgan. Elbarsxon vafotidan keyin uzlusiz o‘zaro nizolar sababli xonlar tez-tez almashib turgan. 16-asrda Xiva xonligini Sulton Hojixon (1516), Husaynqulixon (1516), So‘fiyonxon (1516—22), Bujaqaxon (1522—26), Avaneshxon (1526—38), Alixon (1538—47), Akatoyxon (1547—56), Yunusxon (1556—57), Do‘shton (1557—58), Hoji Muhammadxon (1559—1602) lar boshqarganlar. Bu davrda xalq, Elbarsxon avlodlari o‘rtasidagi o‘zaro qirg‘inlaridan tashqari Buxoro va Xiva xonligi o‘rtasida urushlar azobini ham tortishga majbur bo‘lgan. Buxoroliklar Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronlik davrlarida (1537—38; 1593; 1595—98) Xorazmga hujumlar qilib, qisqa vaqt Xiva xonligini Buxoroga bo‘ysundirganlar.

Bu urushlar va 16-asrning 70-yillarida Amudaryo o‘zanining o‘zgarib, Kaspiy dengiziga oqmay qo‘yanligi ham Xorazm iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan hisoblanadi. 17-asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo‘lgan sulolaviy kurashlardan so‘ng, taxtga o‘tirgan Arab Muhammadxon davrida Xiva xonligida davlat parokandaligi o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetgan.

Rus kazaklari, qozoqlar va qalmiqlarning talonchilik yurishlari, Arab Muhammadxonning o‘g‘illari Habash va Elbarslarning otalariga qarshi chiqishlari parokandalikni avj oldirgan. Bu kurashda ularning qo‘li baland kelib, otalarini qatl ettirishga erishadilar. Padarkush Elbars va Habash sultonlar (1621—23) akalari Asfandiyor (Isfandiyor, 1623—43) tomonidan taxtdan tushirilib, qatl qilingan.

Safaviylar shohi Abbos I homiyligida taxtga chiqqan Asfandiyorxon davrida mamlakat siyosiy hayotidagi keskinlik saqlanib qoldi. Orol bo‘yidagi o‘zbek qo‘ng‘irotlari Asfandiyorga bo‘ysunmay qo‘yishgan. Mamlakatda tarqoqlik va zulm kuchaygan. Bundan foydalangan yirik mulkdorlar Abulg‘oziy Bahodirxonni 1643 yilda xon qilib ko‘tarishgan. Abulg‘oziy Bahodirxon akasi vafotidan keyin 1644 yilda Xiva xonligi taxtiga o‘tirgan. U markaziy hokimiyatni mustahkamlab, Buxoro xonligining Chorjo‘y, Vardanza, Qorako‘l, Karmana atroflariga bir necha marta harbiy yurishlar qildi. Abulg‘oziy Bahodirxon 1662 yilda Buxoro xoni Abdulazizzon bilan sulh tuzib, 1663 yilda hokimiyatni o‘g‘li Anushaxonga topshirgan. Shunga qaramay Xiva qo‘sishnlari Buxoro, Samarcand, Qarshiga talonchilik yurishlarini davom ettirgan. 1685 yilda Xiva qo‘sishnlari. Buxoro xoni Subhonqulixon Anushaga qarshi fitna uyushtirib, uning o‘g‘li Arang Muxammadxonga taxtni egallahsga yordam berdi. Lekin uning hukmronligi juda qisqa bo‘lgan. 17-asrning oxiri – 18-asr boshlarida Xiva xonligida Xudoydodxon (1687—88), O‘zbekxon—Arnakxon (1688—90), Jo‘ji Sulton (1694—97), Valixon (1697—99), Shohniyozxon (1699—90), Shohbaxtxon (1702—03), Sayid Alixon (1703—05), Musaxon (1705—06), Yodgorxon (1706—13) kabi o‘nlab xonlar almashgan.

Xuddi shu davrga kelib Rossiyaning Sharqqa bo‘lgan qiziqishi ortgan va Pyotr I 1714-17 yillarda Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidida Xivaga harbiy ekspeditsiya jo‘natgan. Xiva xoni Sherg‘ozixon (1714—28) Qayrag‘och darasidagi ochiq to‘qnashuvda katta talafotga uchragach, harbiy hiyla ishlatib, rus qo‘sishlarini 5 ta shaharga bo‘lib yuborgan va ularni alohida-alohida qirg‘in qilgan.

Bu paytda ichki nizolar, zulm avj olgan, Orol bo‘yi aholisi Xivaga bo‘ysunmay qo‘ygan edi. 1728 yilda Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasi qurilishida qullar qo‘zg‘olon ko‘tarib, xon va uning mulozimlarini qatl qilishgan. Shu voqeadan keyin Xiva xonligida siyosiy o‘yin yana avj olgan. Xiva xonligidagi o‘zaro urushlarda Elbarsxon (1728—39) hokimiyatni qo‘lga kiritgach, ichki nizolarni bostirib, qo‘sni hududlarga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan. 1740 yilda Safaviylar shohi Nodirshoh Xiva xonligiga bostirib kirib, uni o‘ziga bo‘ysundirgan. 1741 yilda Xorazmliklarning qo‘zg‘oloni Safaviylar tomonidan bostirilgan.

Buxoro xonligi bilan O‘rta Osiyoda hukmronlik huquqi yo‘lidagi kurashda Xiva askarlari Qorako‘l, Chorjo‘y, Vardanzini xorabazorga aylantirdi va Karmanagacha yetib keldi. 1662 yil Xiva xoni Abulg‘ozixon navbatdagi urushdan so‘ng Buxoro xoni Abulazizzon bilan sulh tuzdi. Lekin uning o‘g‘li Anushaxon (1663—1687yy.) davrida Buxoroga hujumlar yana davom ettirildi. 1685 yil Xivaliklar Samarcandni egallab olishga muvaffaq bo‘lishdi. Lekin G‘ijduvon yonida Anushaxon mag‘lubiyatga uchradi va Samarcandni tashlab chiqishga majbur bo‘ldi. Ko‘p o‘tmasdani Buxoro xoni Anushaxonga qarshi fitna uyushtirdi, unda Anushaning o‘g‘li Ernak (Ereng) ham ishtirok etdi. 1687 yil Anusha hibsga olinib, ko‘zi ko‘r qilindi. 1668 yil Buxoro xoni Subxonquli Xorazmni o‘ziga bo‘ysindirdi va uning hukmdori etib Shohniyozni tayinladi-keyinchalik u xonlik unvonini qabul qildi. Shohniyoz xonlik hokimiyatini mustahkamlash va Buxoroga tobelikdan xalos bo‘lishga intildi.

Shu maqsadda 1700 yil Buxorodan yashirin holda Petr I ga elchi jo‘natib, qo‘l ostidagi xalqi bilan o‘zini Rossiya fuqaroligiga qabul qilishni so‘radi. Xon Arab Muhammad (1702-1714yy.) ham Rossiya ko‘magiga umid qilgan ko‘rinadi.

Sherg‘ozixon (1715-1728yyy.) hukmronligi davrida feodal fitnalari davlatni bo‘lakbo‘lakka ajratib tashlagan. 1717 yil Xiva xonligi Rossiya davlatining A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy ekspedisiyasi hujumini bartaraf etishga muvaffaq bo‘lgan. Sherg‘ozidan so‘ng xonlik taxtiga Ilbars (1728-1740 yy.) o‘tirdi. Savafiylar shohining Afg‘oniston va Hindistonga qilgan yurishidan foydalangan Ilbars Xurosonga hujum qildi. Ushbu voqeа, shuningdek Xiva tomonidan Savafiylar hukmronligining rad etilishi va Buxoroni harbiy jihatdan qo‘llab quvvatlanishi Nodirshohni Xorazmga yurish qilishga undadi. Hazorasp yonida Ilbars mag‘lub bo‘ldi. To‘rt kunlik qamaldan so‘ng Nodirshoh poytaxtni zabit etdi. Xiva armiyasining katta qismi Nodirshoh qo‘sishnari tarkibiga kiritildi. Xivada Nodirshoh vakili va Savafiylar harbiy garnizoni qoldirildi. Lekin xonlikning shimoliy qismida Savafiylar hukmronligi kuchga ega emas edi.

XVI—XIX asrlar davomida Xiva xonligi hududlari doimo o‘zgarib turgan. Dastlab xonlik hududi Xorazm vohasidagina joylashgan bo‘lsa, keyinchalik uning chegarasi janubda Savafiylar va Marvgacha, shimolda Ural daryosigacha bo‘lgan yerlarga cho‘zilgan, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda esa Kaspiy dengizi qirg‘oqlarigacha yetgan.

Xulosa. Xon va uning qarindoshlari, oliy martabali boshqa turli amaldorlar, ruhoniylar, savdo-sotiқ tabaqalari barcha yershingan deyarli yarmiga egalik qilishgan. Amaldorlarning yerlari 2-3 ming tanobni tashkil etgan. Xon va uning qarindoshlari undan ham katta hajmdagi yer maydonlariga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida va xususiy mulk yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilishgan. Davlat yerini ijara qiluvchilar bevatani, xususiy yersharni ijara qiluvchilar koranda, vaqf yerlarini ijara qiluvchilar esa vaqfchi deb atalgan. Xonning qarindoshlari o‘z xususiy yerlaridan davlatga soliq to‘lamas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yer olganlar ham ozod etilgan edi. Biroq soliqni bu yerdarda ishlovchi ijadorlar, ya’ni mehnatkashlar to‘lashgan.

REFERENCES

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlар tarixi. Science and Education, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 129-132.
3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. Miasto Przyszlosci, 53, 956-959.
4. Haqqulov, M. (2024). O ‘RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO‘LGAN “TURKISTON MUXTORIYATI”. Modern Science and Research, 3(12), 609-613.
5. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. Modern Science and Research, 4(1), 663-672.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(11), 154-159.

7. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSSI. Modern Science and Research, 4(1), 221-227.
8. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. Journal of universal science research, 3(1 (Special issue)), 319-325.
9. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. Modern Science and Research, 4(1), 248-256.
10. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(1), 471-478.
11. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 472-476.
12. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). Modern Science and Research, 4(2), 834-842.
13. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. Journal of universal science research, 3(1 (Special issue)), 319-325.
14. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 472-476.
15. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). Modern Science and Research, 4(2), 834-842.
16. Srojeva, G., Haqqulov, M., & Gulyamov, A. (2025). KUDZULA KADFIZ BOSHCHILIGIDA KUSHON IMPERIYASIGA ASOS SOLINISHI VA BU IMPERIYANING RAVNAQI. Modern Science and Research, 4(2), 109-117.
17. Yarashova, M., Yuldasheva, F., & Haqqulov, M. (2025). TA'LIM OLİSH TARTIBI: YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLUYUZIV TA'LIM. Modern Science and Research, 4(2), 73-80.
18. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 100-108.
19. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldasheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO 'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. Modern Science and Research, 4(2), 81-91.
20. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO MUZEYINING II JAHON URUSHIGACHA BO 'LGAN DAVRDAGI FAOLIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 92-99.
21. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). THE TEACHER-STUDENT RELATIONSHIP BETWEEN IMAM AL-BUKHARI AND IMAM AT-TIRMIDHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 440-447.
22. Haqqulov, M. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Modern Science and Research*, 4(3), 584-593.

23. Haqqulov, M. (2025). NARSHAXIYNING" BUXORO TARIXI" ASARI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 1036-1045.
24. Yarashova, M., Haqqulov, M., & Muyiddinov, B. (2025). BUXORO QO'RBO SHILAR TARIXIDA O'CHMAS NOM QOLDIRGAN, BUXORO QAHRAMONI IBROHIMBEK. *Modern Science and Research*, 4(4), 388-397.
25. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Muyiddinov, B. (2025). SHARAFIDDIN ALI YAZDINING "ZAFARNOMA" ASARI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(4), 398-408.
26. Haqqulov, M. (2025). THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF HADITH IN HISTORICAL ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 4(4), 467-474.
27. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). THE DOCTRINE OF SUFISM IN THE EYES OF THE SCHOLARS OF THE EAST. *Modern Science and Research*, 4(5).
28. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
29. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
30. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
31. Haqqulov, M. (2025). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOT VA IJOD YO 'LI. *Modern Science and Research*, 4(5).
32. Нозимов Ж. Т. и др. Социально-психологические особенности формирования духовных потребностей в профессиональном развитии студентов //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 5. – С. 455-459.
33. Nozimov, J. (2019). The use of the trainings in developing intercultural competence in students. In Психология образования будущего: От традиций к инновациям (pp. 112-114).
34. Nozimov, J. T., & Usmanova, M. N. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 49-51.
35. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
36. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
37. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
38. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
39. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.

40. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
41. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
42. Vahobovna, S. G. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARIGA QARATILAYATGAN E'TIBOR.
43. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
44. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
45. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
46. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH T AHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1-5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
47. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
48. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
49. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071-1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29533>
50. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE "RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568-572. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28329>
51. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179-183. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2698>
52. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. *Центр научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10963
53. Umidjon Xayrullayev. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13958464>
54. С. Ю. Каримов. (2025). РОЛЬ ФАЙЗУЛЛЫ ХОДЖАЕВА В ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14741491>
55. Каримов Сухроб Юсупович. (2024). ОРДЕН НАКШБАНДИЯ: ИСТОРИЯ, УЧЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14509878>
56. Yusupovich, K. S. (2024). Abu Hafs Kabir and the Spread of the Hanafi Madhab in Transoxiana. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.

- EDUCATION, 4(9), 204–207. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4079>
57. Юсупович, К. С. . (2024). КРАТКИЙ ОБЗОР НА ВЗАИМООТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА И ДВИЖЕНИЯ “ТАЛИБАН”, НА ФОНЕ ЗАХВАТА ТАЛИБАМИ ВЛАСТИ В АФГАНИСТАНЕ В 2021 ГОДУ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(11), 227–229. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/12432>
58. Xayrullayev , U., Sayfutdinov , F., & Rahmonova , S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. Modern Science and Research, 4(1), 147–154. Retrieved from <https://doi.org/10.5281/zenodo.14872554>